

## TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

*Maxsus pedagogika yo'nalishi*  
*2-bosqich talabasi*  
**Xojibayeva Dinora**

**Anatatsiya:** *Ushbu maqolada aqliy zaiflikning qanday kelib chiqishi, aqli zaif bolalarning qanday maktablarda o'qishi, ular bilan qanday korreksion ishlar olib borilishi, hamda ular bilan foydalanadigan metodlar va qanday kasb egalari bo'la olishlari.*

**Kalit So'zlar:***Aqli zaif bola, logoped, korreksiya, defektolog, kasb –hunar, nuqsonlar, tug'ma, orttirilgan, sog'lom inson, ommaviy maktab, yolg'onchilik, egoizm, gaprishni yo'qotish individual, morfologik, guruhli, didaktik, korreksion.*

### KIRISH

Mustaqillikdan so'ng respublikamizda rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi alohida ahamiyatga moyillik bo'la boshlagan. Jamiyatimiz rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar umumjamiyatimiz e'tiboriga olinib boshlagan. Ularga hamma shart sharoitlar va qulayliklar yaratilgan maktablar ochilgan. Yordamchi maktablardagi pedagogik jarayonlarning nazariy asosini maxsus fan — oligofrenopedagogika fani tashkil etadi. Oligofreno so'zi grek tilidan olingan bo'lib («oligos» - kam, «fren» — aql) degan ma'noni bildiradi. O'z nomidan ma'lumki bu fan aqli zaif bolalar ta'limi bilan shug'ullanadigan fan hisoblanadi. Bunday bolalar sog'lom tengdoshlaridan orqada qolayotgan bo'lsa ham jismonan sog'lom bo'lishadi. Ularni tashqi ko'rinishiga qarab ulardagi intellektual nuqsonlarni bilib bo'lmaydi.

Oligofrenopedagogikaning maxsus markazida turadigan manba nuqsonning o'zi emas balki, u bilan bog'langan buzilgan ruhiy holatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, biz aqli zaif deb bu holatning turg'unligini ham tushunamiz. Mana shu mezonning bor yoki yo'qligiga qarab aqliy qoloqlikni boshqa unga o'xshash turlardan farqlashimiz lozim.

Aqli qoloqlikning asosiy belgilari:

- a) bosh miyada organik buzilishning mavjudligi;
- b) bilish faoliyatlarining umumiy, chuqur buzilganligi;
- d) bilish faoliyatlari buzilganligining turg'un xarakterdaligi.

Aqli zaif bolalar guruhiga quyidagi bolalar kirmaydi:

- a) aqliy rivojlanmaganlik bosh miyaning organik buzilishlari bilan bogliq bo'lmagan pedagogik qarovsizlar;
- b) ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar;
- d) aqliy jihatdan saqlangan bo'lib, chuqur nutq kamchiliklari bo'lgan bolalar.

Amaliyotda ba'zan bosh miyasi zararlangan bolalarni aqli zaiflar qatoriga qo'sha olmaymiz. Bunday hollarda bosh miya zararlanishi bilish faoliyatining buzilishiga olib

kelmaydi. Hozirda yordamchi maktablarimizda asosan aqli zaiflikning yengil darajasi — debil bolalar ta'lim oladilar. Bular bir toifaga kirmaydigan sohalardir. Amalda sog' bolalar toifasiga aqliy nuqsonlar ilk rivojlanish davrida kasallikka chalinib, kasalliklarining rivojlanishi to'xtagan bolalar kiradi. Bunday bolalarning keyingi aqliy rivojlanishi nuqsoni asosida davom etadi. Ammo bular amaldagi "SOG'" bolalardir. Aqli zaif bolalar bu toifaning asosiy, tipik vakillari hisoblanadi. Bu bolalar yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismi bo'lib, yordamchi maktab o'quvchilarining ikkinchi toifasini aqliy nuqsonlilikni keltirib chiqaradigan, kasalliklari davom etadigan bolalardir. Bunday bolalar ma'lum rivojlanish davrigacha me'yorida rivojlanib, keyinchalik kasallikka chalinadilar. So'nggi yillarda tabiiy fanlarning rivojlanishi asosida oligofreniyaning etiologiyasi va patogenezi haqidagi ma'lumotlar yanada kengaydi. Bular orasida amalda kasalliklari davom etuvchi bolalar ham uchraydi. Aqli zaif bolalar 20 dan ortiq kasb egalari bo'la oladilar. Shulardan bir nechta misollar keltirib o'tamiz: tikuvchi, quruvchi, suzuvchi, farrosh, sartarosh, rassom fotosur'atchi, oshpaz, uylarni ta'mirlovchi va hokazo.

### ASOSIY QISM

Aqliy rivojlanishida nuqsoni kelib chiqish sabablariga ko'ra 2 turga bo'linadi. Bular tug'ma va orttirilgan.

Tug'ma rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bu nasliy, yoki onani homiladorlik paytida kuchli stressni boshdan kechirish, turli xil kasalliklar natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Orttirilgan shakli tug'ilish paytida yoki tug'ilgandan keyingi 3 yoshgacha bo'lgan davr ichida turli xil jarohatlar bolaning kuchli infeksiya kasalliklarni boshdan kechirish oqibatida yuzaga kelgan bo'ladi. Aqli zaiflikning tibbiy tashxisi F70, F71, F72, F73. Aqli zaif bolalarni dastlabki rivojlanish bosqichlardan boshlab ularning shakillanib borishi sekin me'yoridagi tengdoshlaridan ortda qolgan xolda o'ziga xos tarzda davom etadi.

Orttirilgan turi esa 3 yoshdan keyin, yoki bola miyasini rivojlanib bo'lgandan keyin kelib chiqadi. MASALAN ORTTIRILGAN AQLIY ZAIFLIKDA 4 yarim 5 yoshgacha sog'lom va yaxshi rivojlangan, keyin yomon bir kasallik bilan kasallanib (mininggid), gapirishni yo'qotib aqli rivojlanishi orqada qoladi desak, bu orttirilgan aqliy zaiflik hisoblanadi. Sog'lom insonlarning miyasi 1 yarim kilogramgacha bo'ladi. Aqli zaif insonlarning miyasi esa sog'lom insonnikiga qaraganda bir qancha marotaba kichik bo'ladi. Shuning uchun ham aqli zaif bola miyasiga hamma narsani ham birdaniga sig'dira olmaydi. Nafaqat aqli zaif balki, sog'lom bolalar ham birdaniga miyyasiga hamma narsani sig'dira olmaydi. Ular barcha narsani asta sekinlik bilan qabul qiladi. Sog'lom odamlar ham hamma narsani o'zi ustida shug'illangani va o'zining xohish istaklari bo'lganligi sababli hammani narsani tushinib o'rgana oladi. Aqli zaif insonlar ham shunaqa o'zida xohish bormi demak, u ham aqli zaif bo'lishiga qaramay hamma narsani sog'lom odamday bajara oladi. Faqatgina xohish va istak bo'lsa bas. Aqli zaif insonlar bilan faqatgina oligofren pedagoglar emas, difektologlar ham ish olib borishadi.

Aqli zaif bolalar ommaviy maktablarda o'qiy olmaydi . Ular uchun maxsus maktablar ochilgan bular 33, 36, 37 , 52 ,57 ,66, 87, 103, 105 hamda 199 maktab muassasalari hisoblanadi . Aqli zaif bolalarning fikrlash doirasi past yoki yo'q bo'lishi ham mumkin . Agarda bolalarning fikrlash doirasi past bo'lmasa, bu bolalar sog'lom bolalar kabi ommaviy maktablarda o'qiy oladi va sog'lom bolaga o'tiladigan darslarni ham o'zlashtira oladi . Umuman fikrlash doirasi yo'q bo'ladigan bo'lsa , aqli zaiflar maktabida o'qitiladi . Bunday bolalar hech narsani tushunmaydi va nutqi ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

Oligofreniya tibbiy tashxisiga ega bo'lgan insonlar hisoblanadi . Ularda bu oligofreniya kasalligi miyadagi asab hujayralarining shikastlanishi va homila rivojlanishida tug'ilish paytida yoki tug'ilgandan keyingi 3 yil ichida sodir bo'ladi . Ularda ruhiy kasalliklar bo'lmaydi . Lekin dastlabki bosqichlardan boshlab ularning rivojlanishi sekin o'ziga xos tarzda davom etadi. Oddiy shakllangan miyaning shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan aqliy zaiflik bu (demans) deb ataladi . Miya shikastlanishi , markaziy asab tizimining turli kasalliklar ( meninggid ,ensifalit va boshqalar ) natijasida allaqachon shakllangan psixik funksiyalarning parchalanishi , ilgari shakllangan malakalarning yo'qolishi kuzatiladi . Misol uchun 4 yoshli bolada (demans) frazeologik nutq va o'z – o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini buzishda o'zini namoyon qilishi mumkin.

Miyaning ayrim sohalarida buzilishlar bilan bir qatorda uning boshqa qismlarining ko'proq yoki kamroq saqlanishi mavjud. Ko'pincha kognitiv jarayonlarga qaraganda e'tibor xotira ishlashining jiddiy buzilishlari kuzatiladi. Aqliy zaiflik markaziy asab tizimining hozirgi kasalliklari : shizofreniya , epilepsiya va boshqalar bilan birlashtirilgan shaxslardan iborat maxsus guruh hisoblanadi . Ushbu kasalliklarning rivojlanishi bilan aqliy shakllanishlarning parchalanishlari sodir bo'ladi, aqliy zaiflik chuqurlashadi va og'ir darajaga yetadi . Bugungi kunda ko'pincha aqliy zaifligi qo'shimcha psixoz bilan murakkab bo'lgan bolalarni uchratish mumkin . Aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalarning tarkibi miya shikastlanishining sabablari va vaqti bo'yicha ham, shikastlanish darajasi bo'yicha ham juda xilma xildir .

Rossiyada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ( aqli zaif) bolalarga yordam ko'rsatishning rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, aqli zaif bolalarga yordam ko'rsatish ularni tarbiyalash va o'qitish tarixi 3 ta katta davrga to'g'ri keladi . Oktyabr inqilobidan oldin, SSSRda va hozirgi vaqtda . Belgilangan davrlarning har biri o'ziga xos yondashuvlar va yo'nalishlar bilan ajralib turadi . Oktabr inqilobidan oldin xalq taraqqiyparvar mutafakkirlar vakillari edi . Pedagoglar va tabiblar xayriya tadbirlarini amalga oshirish , aqli zaiflarni davolash va tarbiyalash tarafdori edilar . Aqliy rivojlantirishda nuqsoni bo'lgan bolalarni rivojlantirish va ularning kamchiliklarini tuzatish uchun barcha sharoitlar yaratilgan . Ularda dars o'tish uchun guruhlarga bo'lib individual hamda frontal dars o'tilish jarayonlari kuzatiladi . Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bitta sinfda ko'pi bilan 10, 12 tagacha o'qitiladi . Bu bolalar bilan

oligofenopedagog individual dars o'tganida sinfda masalan 12 ta o'quvchi bo'lsa hammasi bilan birgalikda shug'ullanadi. Frontal dars o'tganda esa har bittasi bilan alohida bitta xonada o'tirgan holatda dars o'tadi va karreksion ish olib boradi.

1920- yilga kelib Oligofrenopedagogika asoslari» o'quv qo'llanmasi chop etilgan. Bu o'quv qo'llanmada birinchi marta sistemalashtirilgan holda aqli zaif bolalar ta'lim - tarbiyasining nazariy asoslari ochib berilgan. Aqli zaif bolalarning rivojlanish imkoniyatlari va ularning ijtimoiy mehnatga moslashish masalalari ham o'tkir munozaralarga sabab bo'lgan. Chet el «defektologlarining» ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar ongi tashqi olamni aks ettirish sifatida emas, balki ularning ichki nuqsonli holatining aks etishidir. Shu asosda ular aqli zaif bolalarga «axloqiy nuqsonlilik», «axloqsizlik» xosdir, deb tushuntirishga urinadilar. Aqli zaif bolalar tug'ma yolg'onchilik, egoizm, qaysarlik kabi xislatlar bilan dunyoga kelar ekanlar. Ularning ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar rivojlanishga, tuzatilishga imkoniyatlari bo'lmagan nuqsonlilardir. Bunga o'xshash qarama-qarshiliklar ayniqsa, sobiq tuzim bolalarning aqliy qobiliyatlarini aniqlash vaqtlarida testlardan notog'ri foydalanish natijasida normal bo'lgan bolalarning ko'pchiligi asossiz ravishda yordamchi maktablarga yuboriladi. Bu narsa haqiqiy aqli zaif bolalarning ta'lim-tarbiya usullarini tamoyillarini ishlab chiqishga juda katta salbiy ta'sir etadi.

Aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirish bo'yicha karreksion rivojlantiruvchi ishni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar ham juda ko'p. Masalan:

- a) bog'langan nutqni rivojlantirish
- b) lug'at boyligini oshirish
- c) nutqning Grammatik tuzilishini shakllantirish
- d) nutqning fonetik – fanematik tomonini rivojlantirish
- e) savod o'rganishiga tayyorlash ( elementlar tovush analiziga o'rganish )
- f) bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish ( ertaklar she'rlar )

KTIMTT sharoitida aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar 2 ta asosiy shaklda olib boriladi.

1. Maxsus karreksion mashg'ulotlarda
2. Kundalik hayot va faoliyat jarayonlarida

Nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni defektolog va logopedlar olib boradi. Mashg'ulotlar individual va guruhli tarzda olib boriladi. Individual mashg'ulotlar asosan tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib guruhli mashg'ulotlarda so'z boyligi, bog'langan nutq morfologik va diologik nutq asosida ishlar olib boriladi. Har xil mashg'ulotlar davomida kompleks yondashuv bilish jarayonlarining barcha sohalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bilish jarayonlarini rivojlantirishdagi samarali vositalardan biri bu – didaktik o'yinlar hisoblanadi.

Didaktik o'yin – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga ya'ni o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir

vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan: doiraviy misollar o`yinida ikkinchi o`nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo`lgan didaktik topshiriq qo`yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo`yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi .

Xulosa: Aqli zaiflik nerv jarayonlari va bilish faoliyatining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Aqli zaiflikni biz insonlarni xulq atvoridan xotirasidan ,yurish turishi ,hamda harakatlaridan bilsak bo`ladi . Ayrim aqli zaiflar muvozanat buzilish natijasida meyordan ortiq sho`x bo`ladilar. Shu bilan birga aqli zaiflarning og`ir turlarida najaz tutolmaslik holatlar ham uchrab turadi . Aqli zaiflar yuqorida keltirilgandek turli kasb egalari bo`la oladilar .Maxsus yordamchi mehnat maktablarida ta`lim -tarbiya olib chiqqan bolalar turli sohalarda mehnat qilib ishlamoqdalar .Bugungi kunda maktab va boshqa ta`lim muassasalarida aqli zaiflikni aniqlash , hamda ularga yordam berish maqsadida oligofreno pedagoglar tomonidan tekshiruvlar o`tqizilmoqda . Aqli zaiflik aniqlangan bolalarga maxsus maktablarga yo`llanmalar berilmoqda .

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Oligofrenopedagogika&veaction=edit>  
Lola Mo`minova
2. [file:///C:/Users/Digital/Downloads/maxsus\\_pedagogika\\_\\_po\\_latova\\_p\\_m.pdf](file:///C:/Users/Digital/Downloads/maxsus_pedagogika__po_latova_p_m.pdf)
3. <https://www.youtube.com/watch?v=sG7yRm3ULA8>  
Doctor Jalilov
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Oligofren\\_bolalar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Oligofren_bolalar)